

Ahad Hamdamov Hamroyevich

Toshkent iqtisodiyot universiteti

Iahadhamdamov2396@gmail.com +998998765114

Annotatsiya: Zamonaviy turli hil moliyaviy operatsiyalarni tahlil qilishda shu operatsiyalarning xarajatlari va daromadlari kabi ko'rsatkichlarining bir qiymatli emasligi bilan bog'liq noaniqliklarga, risklarga (tavakkalchiliklarga) duch kelinadi. Shunga ko'ra, risklarni o'lchash va ularning moliyaviy operatsiyalar natijasiga ta'sirini o'rganish muammosini hal qilish zaruriyati tug'iladi.

Kalit so'zlar: Moliyaviy operatsiya, o'rtacha daromad, risk (tavakkalchilik), risk bahosi.

Kirish: Agar moliyaviy operatsiya har bir natijasining ehtimoli ma'lum bo'lsa, bunday operatsiyaga ehtimolli deyiladi. Bunday operatsiyadan olinadigan foyda operatsiya so'nggidagi pul massasi bilan boshlang'ich pul massasi orasidagi farqdan iborat bo'lib, u tasodifiy miqdor bo'ladi. Bunday operatsiyalarning foydasi va riskini baholash usullari bilan tanishamiz.

Asosiy qism: Alohida olingan operatsiyaning riskini baholashda ehtimollar nazariyasi elementlari ishlatiladi. Bunda operatsiyaning natijasi daromaddan iborat deb qaraymiz va unga bu natijaning ro'y berish ehtimolini mos qo'yamiz va Q tasodifiy miqdorni hosil qilamiz va uni tasodifiy daromad deb qaraymiz.[1] Agar Q ni diskret tasodifiy miqdor deb qarajak, uning taqsimot qonuni quyidagicha bo'ladi:

Q	d_1	d_2	...	d_n
P	p_1	p_2	...	p_n

Bu yerda: d_i - daromad, p_i - ehtimollik. Ehtimolliklar nazariyasi [2] elementlarini qo'llab operatsiyaning quyidagi tavsiflarini hosil qilamiz.

Kutilayotgan o'rtacha daromadni topish uchun Q tasodifiy miqdorning matematik kutilishini aniqlaymiz.

$$M(Q) = d_1p_1 + d_2p_2 + \dots + d_np_n. \quad (2)$$

Operatsiyaning dispersiyasi bu o'rtacha daromadning chetlanishidir. Buni aniqlash uchun Q tasodifiy miqdor dispersiyasini topamiz.

$$D(Q) = M[Q - M(Q)]^2. \quad (2)$$

Operatsiyaning o'rtacha kvadratik chetlanishini aniqlash uchun Q tasodifiy miqdorning o'rtacha kvadratik chetlanishini topamiz:

$$\sigma(Q) = \sqrt{D(Q)}. \quad (3)$$

Xulosa: Q - tasodifiy miqdorning dispersiyasi va o'rtacha kvadratik chetlanishi operatsiya riskining bahosi hisoblanadi. Lekin ko'p iqtisodchi olimlar tomonidan riskni bahosi sifatida o'rtacha kvadratik chetlanish $\sigma(Q)$ qabul qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Mamurov, R. Abdikarimov. Moliya matematikasi. Toshkent, 2018.
2. Sh.Q. Farmonov, R.M. Turgunbayev, L.D. Sharipova, N.T. Parpiyeva. Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika. Toshkent, 2010.